



## TADBIRKORLIK HUQUQI SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAINNOVATSIYALARNING O'RNI

Javohir Sattorov Jahon o'gli

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim (biznes huquqi) talabasi

Email: javohirsattorov1129@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15573043>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

### KEYWORDS

*tadbirkorlik huquqi, raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar, huquqiy tartibga solish, axborot xavfsizligi, sun'iy intellekt, biznes faoliyati, raqamli muhit, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish..*

### ABSTRACT

*Maqolada raqamli texnologiyalarni tadbirkorlik huquqiga joriy etishning turli konsepsiyalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, iqtisodiyot rivojlanishining yangi tendensiyalari tahlil qilinadi, bu esa xo'jalik yuritish sharoitlarining o'zgarishi, davlat va jamiyat, davlat va biznes o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishiga mos ravishda huquqiy tartibga solishni va nazariy yondashuvni talab qiladi.*

Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyot turli sohalarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Zamonaviy dunyoda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va u turli sohalarni o'z ichiga olgan murakkab tizimga aylangan.

Ilmiy adabiyotlarda "raqamli tadbirkorlik" yoki "raqamli tadbirkorlik faoliyati" tushunchalari hali to'liq o'rganilmagan. Bu holat fuqarolik va tadbirkorlik muomalasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sohasidagi tadbirkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lib, bu "raqamli tadbirkorlik"ni rivojlantirish uchun zaruriy asos sifatida qaralishi mumkin.

Raqamli tadbirkorlar uchun sun'iy intellektning dolzarbligiga turli iqtisodiy sohalarda raqamli innovatsiyalarni joriy etish tashabbuslarini amalga oshirgan tadbirkorlik subyektlari ta'sir ko'rsatdi. Sun'iy intellekt — bu bozorlarni, sanoat tarmoqlarini, hattoki umuman biznes faoliyatini o'zgartirishi mumkin bo'lgan ilg'or texnologiyadir. Qayd etilishicha, sun'iy intellekt texnologiyalarining innovatsion va ilg'or salohiyati boshqa barcha ma'lum texnologiyalardan ustundir, chunki aynan sun'iy intellekt texnologiyalari tadbirkorlikning, ayniqsa sun'iy intellekt sohasidagi o'sishining asosiy omili hisoblanadi. Haqiqatan ham, sun'iy intellekt algoritmlari allaqachon ko'plab biznes sohalariga kirib borgan. Bunga xarid bo'yicha tavsiyalar, yuzni tanish tizimlari yoki ovoqli yordamchilar misol bo'la oladi.

### Adabiyotlar tahlili va metodlar

Mazkur maqolada tadbirkorlik huquqi sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning o'rni, ularning huquqiy munosabatlarga ta'siri hamda amaliyotda yuzaga

kelayotgan dolzarb masalalarni aniqlash maqsadida tizimli yondashuv asosida huquqiy, texnologik va ijtimoiy omillar chuqur tahlil qilindi; bu jarayonda qiyosiy-huquqiy tahlil usuli yordamida xorijiy tajribalar (xususan, Rossiya, AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari) o'rganildi, doktrinal tahlil orqali mavjud ilmiy qarashlar va normativ asoslar ko'rib chiqildi, shuningdek, huquqiy modellashtirish orqali raqamli tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi, empirik yondashuv asosida kichik va o'rta biznes subyektlarining raqamli innovatsiyalarni qo'llash tajribasi tahlil qilinib, ushbu yo'nalishdagi adabiyotlar asosida huquqiy islohotlar zarurati asoslab berildi.

### **Muhokama Va Natijalar**

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar tadbirkorlik huquqiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda va bu sohada normativ-huquqiy bazaning yangilanishi zamon talabi hisoblanadi. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan asosiy omil — bu an'anaviy iqtisodiy sohalarda mavjud bo'lgan tartibga solishdagi nomutanosiblikdir. Shuning uchun, elektron biznes hozirgi kunda raqamli bo'lmagan sohalar bilan raqobatlashishga qodir emas, hattoki oddiy biznes modellari raqamlashtirilgan taqdirda ham. Ushbu muammoni hal qilish tezda amalga oshirilishi mumkin emas, chunki raqamli iqtisodiyot hozirgi bosqichda to'liq ishlab chiqilgan va yaxshi tuzilgan tizim emas.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab kichik va o'rta biznes subyektlari raqamli innovatsiyalarga nisbatan ochiq bo'lishiga qaramay, huquqiy tartibga solishdagi noaniqliklar ularning faol raqamli integratsiyasiga to'sqinlik qilmoqda. Sun'iy intellektdan foydalanishda shaxsiy va biometrik ma'lumotlarning himoyasi, intellektual mulk huquqlarining kafolati va axborot xavfsizligi raqamli tadbirkorlik uchun ustuvor yo'nalishlar sanaladi. Shuningdek, hozirgi bosqichda tadbirkorlik huquqining faqat an'anaviy huquqiy vositalar bilan emas, balki texnik, axloqiy va ijtimoiy omillarni ham hisobga olgan holda kompleks tartibga solinishi zarur. LegalTech vositalarini huquqiy jarayonlarga to'laqonli integratsiyalash, huquqiy hujjatlarning mashinada o'qiladigan formatda ishlab chiqilishi, ochiq huquqiy reyestrlarning joriy etilishi va huquqiy axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya bu boradagi asosiy yo'nalishlar sifatida ko'rilmogda. Shu munosabat bilan, V.K. Andreev har qanday zamonaviy huquqiy tizim raqamli texnologiyalardan foydalanishni faqat huquqiy vositalar bilan tartibga sola olmaydi. Sun'iy intellekt va robototexnika tizimlarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq texnik, huquqiy va axloqiy jihatlarni hisobga olgan holda kompleks tartibga solish zarur deb ta'kidlaydi.

Kichik va o'rta korxonalar (startaplar) faoliyati va ularning raqamli innovatsiyalarni qo'llashga moyilligini tahlil qilish orqali bu biznes jarayonlarni amalga oshirish imkoniyati darajasi aniqlanadi. Axborot texnologiyalari va ularning kundalik hayotdagi o'rni – jamiyat e'tiborini uzoq yillardan beri tortib kelayotgan muhim mavzulardan biridir. So'nggi yillarda ayniqsa LegalTech konsepsiyasi – huquq sohasiga texnologiyalarni joriy qilish orqali yuridik jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish keng tarqalgan. Bu yondashuv zamonaviy dunyoda tobora ommalashib, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Biznes sektori tomonidan huquqni raqamlashtirish ma'lum darajada allaqachon joriy etilgan. Masalan, onlayn bitimlar tuzish va onlayn rozilik (masalan, oferta) amaliyoti tijorat tashkilotlari uchun yangilik emas. Biroq normativ-huquqiy ijod sohasida vaziyat boshqacha. Biznes, ayniqsa muammoli masalalarni hal qilish va regulyator jarayonlarga salbiy ta'sir

ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilishda qonunchilikni shakllantirish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Ammo raqamli sohada yagona huquqiy-texnologik yondashuvning yo'qligi muhim muammo bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda inson hayotiga tobora katta ta'sir ko'rsatadigan va shuning natijasida qonunchilikka ham ta'sir etadigan ko'plab raqamli texnologiyalar mavjud. Avvalo, bu — kognitiv texnologiyalar, bulutli hisoblash texnologiyalari, narsalar interneti (IoT), katta ma'lumotlar (big data) va raqamli valyutalardir.

Jamiyatning raqamli texnologiyalar yo'nalishida rivojlanishiga eng asosiy turtki sifatida global internet tarmog'i sifatining yaxshilanishi hamda aloqa texnologiyalarining kengayishi xizmat qilmoqda. Ushbu omillar natijasida katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor almashish, yig'ish va saqlash imkoniyati yuzaga keldi. Bu esa o'z navbatida, mavjud axborotni chuqur tahlil qilish, ma'lumotlar asosida aniq bashoratlar tuzish, qaror qabul qilishda ratsional yondashuvni qo'llash hamda turli sohalarda samaradorlikni oshirish imkonini berdi. Biroq raqamli infratuzilmaning shakllanishi – ya'ni, xalqaro darajadagi axborot platformalari va ularni qo'llab-quvvatlaydigan ekotizimlarni yaratish — muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu jarayon bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan, axborotni yo'qotish xavfi, kiberxavfsizlik tahdidlari, ish o'rinlarining qisqarishi, biznes jarayonlarining izdan chiqishi va mavjud tizimlarni zamonaviylashtirish zarurati shular jumlasidandir.

Mazkur muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish muhim, chunki kechikish raqamli transformatsiyaning salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda sun'iy intellektdan foydalanishda shaxsiy, shu jumladan biometrik ma'lumotlarni himoya qilish va ularning axborot xavfsizligini ta'minlash zarurati katta ahamiyat kasb etmoqda. Intellektual mulk huquqlarini xalqaro va mintaqaviy darajada himoya qilish texnologik va madaniy rivojlanish, mavjud va yangi texnologiyalarni yaratish, tarqatish hamda ulardan foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Tadbirkorlik faoliyatida axborotni himoya qilish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va axborot xavfsizligini ta'minlash kabi kengroq ikki jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, aynan shu yo'nalishlarni amalga oshirish orqali raqamli makonda mulkiy huquqiy munosabatlar ishtirokchilari — fuqarolar, tadbirkorlar va davlat-huquqiy tuzilmalar manfaatlari muvozanatini ta'minlash mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining biznes faoliyatida va kundalik hayotda keng qo'llanilishi aholining keng qatlamlari orasida yangi ko'nikmalar, o'quv dasturlari va malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, axborot-kommunikatsiya tizimlari asosida amalga oshiriladigan ijtimoiy tadbirkorlikni huquqiy tartibga solish bo'yicha strategiyani ishlab chiqishni talab etadi.

Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish maqsadida axborot-kommunikatsiya huquqiy munosabatlariga xos bo'lgan bir qator huquqiy kategoriyalar faol qo'llanilmoqda. Bular jumlasiga "axborot tizimi", "axborot-telekommunikatsiya tarmog'i", "elektron hujjat", "elektron raqamli imzo", "identifikatsiya va autentifikatsiyaning yagona tizimi", "axborot resurslari", "reyestrlar", "axborotni himoya qilish" kabi tushunchalar kiradi.

Tadbirkorlik huquqining asosiy vazifalaridan biri — elektron aktivlar egalari manfaatlarini huquqiy himoya qilish hamda bunday ob'ektlar bilan axborot tizimlarida huquqiy amallarni amalga oshirish uchun zarur mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat. Bunda, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (ЮНСИТРАЛ) tomonidan belgilangan texnologik neytrallik, funktsional ekvivalentlik, elektron vositalardan

foydalanishda kamsitmaslik kabi tamoyillar tadbirkorlik huquqining asosiy prinsiplari sifatida e'tirof etiladi. Raqamli transformatsiya sharoitida me'yoriy-texnik tartibga solish va standartlashtirish hujjatlarining yuridik ahamiyati oshmoqda. Me'yoriy-texnik tartibga solish orqali raqamli mahsulotlar va xizmatlarning funksional mosligi hamda bozorga chiqarilishi ta'minlanadi.

### **Xulosa**

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, yangi texnologiyalarning keng qo'llanilishi va raqamli tadbirkorlik sub'ektlarining o'sishi huquqiy tizimga yangi yondashuvlar va normativ-huquqiy asoslarning ishlab chiqilishini talab qiladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, ayniqsa, sun'iy intellekt va axborot xavfsizligi masalalari tadbirkorlik huquqining eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Raqamli innovatsiyalarni joriy etish jarayonida huquqiy tartibga solishning moslashuvchanligi va samaradorligi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va intellektual mulk huquqlarini kafolatlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish uchun huquqiy tizimning yangilanishi, texnologik yechimlarning joriy etilishi va normativ-huquqiy hujjatlarning takomillashtirilishi zarur. Shuningdek, huquqiy infratuzilmaning raqamli shaklga o'tishi, LegalTech vositalarini kengaytirish va huquqiy jarayonlarni avtomatlashtirish tadbirkorlik sohasida samarali natijalarga erishish uchun muhim qadam bo'ladi.

Taklif: Tadbirkorlik huquqini raqamli iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish uchun yangi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish zarur. Bunda, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, blokcheyn va boshqa ilg'or innovatsiyalarni hisobga olgan holda maxsus qonun hujjatlari va qoidalar ishlab chiqilishi kerak. Raqamli iqtisodiyotning tezkor rivojlanishi va yangi texnologiyalarning keng qo'llanilishi huquqiy tartibga solishning yangilanishini talab qiladi. Shu bilan birga, mavjud huquqiy tizimning zamonaviylashtirilishi, raqamli tadbirkorlik sub'ektlarini himoya qilishni ta'minlaydi va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Taklif: Raqamli tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda shaxsiy va

biometrik ma'lumotlarni himoya qilishga doir qonunlarni kuchaytirish, shu bilan birga, axborot xavfsizligini ta'minlash uchun yangi me'yorlarni ishlab chiqish zarur. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Sun'iy intellekt va boshqa raqamli texnologiyalar orqali ma'lumotlarni boshqarish va ularning xavfsizligini ta'minlash huquqiy jihatdan muhimdir. Bu masalada mavjud qonunlar va standartlarni yangilash kerak.

Taklif: LegalTech texnologiyalarini huquqiy jarayonlarga integratsiyalash va huquqiy hujjatlarni mashinada o'qiladigan formatda ishlab chiqishni kengaytirish zarur. Bunday yondashuv huquqiy jarayonlarni tezlashtirish va samarali qilishga imkon beradi. Raqamli huquqiy jarayonlarni avtomatlashtirish va LegalTech vositalaridan foydalanish tadbirkorlik huquqining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, yuridik xizmatlar va huquqiy faoliyatni raqamlashtirish, iqtisodiy jarayonlarni soddalashtiradi va ko'plab ishlarni avtomatik tarzda hal qilish imkoniyatini yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Гулямов С.С. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: "Iqtisod Molia" nashriyoti, 2019. 386 bet.

2. Гаврилов Л. П. Электронная коммерция: учебник и практикум для вузов / 3-е изд., доп. Москва : Издательство Юрайт, 2019. -477 с.
3. Лapidус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией.–М.:ИНФРА-М,2018.-381 с.
4. Маркова В.Д. Цифровая экономика: Учебник для ВУЗ ов (Высшее образование: бакалавриат). –М: Инфра-М, 2019. -186 стр.
5. И.А. Хасаншин, А.А. Кудряшов, Е.В. Кузьмин, А.А. Крюкова. Учебник для ВУЗ ов. –М: Горячая линия. –Телеком, 2019. -280 стр.
6. Gulyamov S.S. va boshqalar. Электрон тижорат асослари. О'quv qo'llanma, Intellektual mulk agentligida ruyhatga olingan va deponentga qo'yilgan –iccenter.uz – saytida 001896 raqami bilan 20.01.2020 sanasida qayd qilingan. 346 bet.
7. Gulyamov S.S. va boshqalar. Main basic principles of use of digital technologies in agriculture in the Republic of Uzbekistan. Journal of American Sciencies, 2019, December, №12, pages 12-19.
8. Аюпов Р.Х., Балтабаева Г.Р. Ракамли валюталар бозори: инновациялар ва ривожланиш истикболлари. –Т: “Фан ва технология” nashriyoti, 2018, 172 бет.

